



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SHAHNISABZ SHAHRI MAHALLALARI TASHKIL ETILISHI TARIXI

Komilov Sobit Soyibovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Shahrisabz shahri Qashqadaryo viloyati, qolaversa Respublikamizda o'zining tarixiy, madaniy ahamiyatiga katta o'rin egallagan, keyingi yillarda shahar xalqaro turizm markazlaridan biriga aylangani, yuksak sur'atlar bilan ishlab chiqarish, maorif, van va madaniyat rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Maqola Shahrisabz shahri mahallalari tarixini ilmiy tadqiq etish orqali O'zbekistonning qadimgi tarixiy-geografik hududlarida istiqomat qilgan xalqlar urf-odat va an'analarini, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, diniy hayotini, mustaqillik yillaridagi Shahrisabz shahri mahallarining modernizatsiya jarayonlarini keng miqyosida qiyosiy tadqiq etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: "O'rda" mahallasi, "O'rda" mahallasi, Zingiron mahallasi, "Zargarlik" mahallasi, "Qo'shkhovuz" mahalla, "Fayziobod", "Xo'jamurod baxshi", "Nomozgoh", "Bog'ibahor".

ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ЖИТЕЛЕЙ ГОРОДА ШАХРИСАБЗ

Комилов Собит Соибович

Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

Мы видим, что город Шахрисабз занимает важное место в Кашкадарьинской области, а также в нашей Республике, благодаря своему историко-культурному значению. В последние годы город стал одним из центров международного туризма, и в нем стремительно развиваются производство, образование, наука и культура. Статья, основанная на научном исследовании истории кварталов города Шахрисабз, позволяет провести масштабное сравнительное изучение обычаев и традиций народов, населявших древние историко-географические регионы Узбекистана, их политической, социально-экономической, культурной и религиозной жизни, а также процессов модернизации кварталов города Шахрисабз в годы независимости.

Ключевые слова: район «Орда», район «Орда», район Зингирон, район «Заргарлик», район «Кошховуз», «Файзиобод», «Ходжамурат Бахши», «Номозгох», «Богибахор».

HISTORY OF THE ORGANIZATION OF SHAHRISABZ CITY NEIGHBORS

Komilov Sobit Soyibovich

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

We can see that the city of Shahrisabz occupies a great place in the Kashkadarya region, as well as in our Republic, due to its historical and cultural significance. In recent years, the city has become one of the centers of international tourism, and production, education, science, and culture have developed rapidly. The article, through scientific research into the history of the neighborhoods of the city of Shahrisabz, allows for a large-scale comparative study of the customs and traditions of the peoples who inhabited the ancient historical and geographical regions of Uzbekistan, their political, socio-economic, cultural, and religious life, and the modernization processes of the neighborhoods of the city of Shahrisabz during the years of independence.

Keywords: "Orda" neighborhood, "Orda" neighborhood, Zingiron neighborhood, "Zargarlik" neighborhood, "Qoshkhovuz" neighborhood, "Fayziobod", "Khojamurat Bakhshi", "Nomozgoh", "Bogibahor".

Murakkab taraqqiyot bosqichlari davomida Shahrisabz o'z bag'rida Sharq shaharsozligi va ijtimoiy shaharchilik alomatlarining barcha xos xususiyatlarini mujassam etdi. Bu hol, ayniqsa, shaharning aholi qatlamlari, kasb-kor, xo'jalik tarmoqlari, ijtimoiy hayot tarzi bilan bog'liq tarixiy infratuzilmaning shakllanishida yaqqol ko'rinadi. Xususan, Shahrisabzda mahallalar ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy markazlar sifatidagi guzarlar kabi tarkibiy tizimni o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, Shahrisabz mahallalari haqidagi ba'zi ma'lumotlar bu shaharning an'anaviy tarixiy qiyofasiga xos ko'p xususiyatlarni saqlab kelmoqda. Masalan, Yoyilma guzari atrofida uyushgan

Charmgarlik, Temirchilik, Namaton mahallalari shahar hayoti uchun muhim tarixiy ishlab chiqarish sohalari haqida xabar beradi. Zingaron mahallasi nomida aholining egar, ot-ulov asboblari ishlab chiqarish bilan shug'ullanganiga aniq ishora mavjud.

Shaharning ba'zi mahallalari markaziy qismiga nisbatan joylashgan topografik o'rniga ko'ra nomlangan. Masalan, Kunchiqar mahallasi, Chinortagi, Darvoza og'zi kabilar shular jumlasidan. Bir guruh mahallalar ijtimoiy-tarixiy munosabatlar bilan bog'liq: Eshonpir, Malik Ajdar, shahar atrofi mahallalaridan Xo'jamurod baxshi, Xo'ja mahallasi kabilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Mavzuning o'rganilganlik darajasi quyidagi 2 guruhga bo'lgan holda tahlil etildi:

1. Mustaqillik yillaridagi ilmiy tadqiqotlar;
2. Mavzuning xorij tarixshunosligi.

Birinchi guruh tadqiqotchilari O'zbekiston mahallalarining mustaqillik yillaridagi faoliyati, umumiy va mahalliy xususiyatlari, mahallalarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ma'lum ma'noda yoritilganligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Jumladan, birinchi guruhdagi ilmiy tadqiqotlar qatoriga G. Umarova, Z. Arifxanova, V. Ishquvatov, F. Tolipov, O. Bo'riyev, A. Tursunov, X. Sharopov, A. Ochilov, I. Bobojonov, X. Raxmonov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda o'zini o'zi boshqarish organlari, xususan, mahallaning o'tmishda va bugungi kundagi keng qamrovli faoliyati tarixiy yo'nalishda tadqiq etilgan.

Sh. Jalilov, M. G'ulomov, S. Sultonov, A. To'laganov, A. Xolbekov, M. Qirg'izboyev, Sh. Sodiqova, Sh. Minovarov, M. Quronov, G. Ma'rufova, Sh. Raxmatullayev, A. Saidov, G. Malikova, A. Boboyev, Z. Ro'ziyev, G. Ismoilova, Z. Rayimova, M. Suvonqulovlarning tadqiqotlarida mahallalarning o'tmishda va bugungi kundagi faoliyati yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi guruh adabiyotlari doirasida xorijda chop etilgan asarlar va materiallar tahlil qilindi. Muammoning o'rganilishi borasidagi tadqiqotlar tahliliga ko'ra, xorijdagi ilmiy tadqiqotlar tarixshunosligi ham e'tiborga molik bo'lib, ularda O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, viloyatlardagi mahallalar hayoti xususida ayrim ma'lumotlar uchrashini qayd etish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda muammoning u yoki bu jihatlarini yoritishga harakat qilingan deb hisoblash mumkin.

Tadqiqotda taqqoslash, mantiqiy, muammoviy-xronologik tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiylik, anketa-so'rovnoma, tizimlashtirish, statistik tahlil va og'zaki tarix kabi qator usullardan keng foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Shahrisabz shahri "O'rda" mahallasi 1939-yilda tashkil topgan bo'lib, qadimdan shu nom bilan atalib kelinmoqda. "O'rda" so'zi turkiy so'z bo'lib, "ma'muriy-harbiy maskan" degan ma'noni bildiradi. Shaharning davlat ahamiyatidagi inshootlar, ma'muriy binolar, hukmdor saroyi va boshqalarni o'z ichiga olib, devor bilan o'ralgan qismi O'RDA hisoblangan. Mahalla aholisining aksariyat qismi hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Aholisi 1706 nafar (2019-yil 1-yanvar holatida) bo'lgan, xo'jaliklar soni 284 ta, oilalar soni 536 tani tashkil etgan.

Zingiron mahallasi esa 1933-yillarda tashkil qilinib, qadimiy Shahrisabzning qal'a ichida joylashgan. Mahalla qadimdan egar-jabduq, zingar yasaydigan hunarmandlar mahallasi bo'lgani uchun "Egarchilar" mahallasi deb aytilgan va Shahrisabz shahar hokimi qarori bilan 1991-yildan "Zingiron" deb qayta nomlangan. Aholi soni 4216 nafar (2019-yil 1-yanvar holatida), xonadonlar soni 577 ta, oilalar soni 952 ta. Mahalla hududida qadimiy yodgorliklardan XVI asrda qurilgan va hozirgacha aholiga xizmat qilib kelgan qadimiy hammom, XVIII asrda qurilgan Katta Chuyton ko'chasidagi "Kitob guzari" masjidi va XX asrning boshida, ya'ni 1904–1910-yillarda qurilgan "Abdushukur Og'alik" va "Malik Ashtar" jome' masjidlari joylashgan.

"Kulollik" mahallasi XX asr boshlarida, aniqrog'i, 1928-yilda tashkil topgan. U davrda mahallada bor-yo'g'i 50–60 xonadon yashagan. Shahrisabz shahrining kunbotish tomonida "Kulollik" MFY joylashgan. 1996-yilda mahallaga Salomat Zubaydullayeva rais etib saylanib, 10 yil shu lavozimda ishladi. Prezident farmoniga asosan "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi. Shuningdek, 2004-yilda tuzilgan, 45 nafar a'zodan iborat "Hunarmand faxriy ayollar" uyushmasiga ham raislik qildi [1]. Bu joylar aksariyat shahardagi "Kulolchilik" mahallasi aholisining bog' hovlisi hisoblangan. Mahalladagi 508 xonadon, 3786 nafar aholi (2019-yil 1-yanvar holatida) asosan o'zbek, rus, koreys, qozon tatarlari vakillaridan iborat.

"Zargarlik" mahallasi azaldan zargarlar yashaganligi uchun shunday nomlangan. Mahallada "Chorsu" dehqon bozori, Koba, Cho'bin, Chorsu tarixiy obidalari mavjud. 1940-yilda mahallada maktab qurilgan bo'lib, bugungi kunda maktabda 500 nafardan ziyod turli millat vakillari tahsil olmoqdalar.

“Qo‘shhovuz” mahallasi 1928-yilda tashkil topgan. Asosan o‘zbek, tojik, rus millatiga mansub aholi yashab kelmoqda. “Qo‘shhovuz” deb nomlanishining sababi mahallada ikkita hovuz bo‘lib, biri ichimlik suvi uchun, ikkinchisi chorva mollarini sug‘orish uchun foydalanilgan. Shu sababli “Qo‘shhovuz” mahallasi deb nomlangan.

“Qoziguzar” XIX–XX asr boshlarida mahallada qozilarning kelib, fikr almashadigan maskani bo‘lgan. Qozixona Shahrisabz bekligiga qarashli bo‘lib, yechim topilmagan muhim masalalarni qozilar joyida hal qilishgan. 1931-yil 5 ta guzar birlashtirilib, hozirgi “Qoziguzar” mahallasi tashkil etilgan. Qoziguzar mahallasida “Eshonpiri” jome’ masjidi bo‘lib, masjid 1917-yil hashar yo‘li bilan yangidan qurib bitkazilgan. Hozirgi kunda ham masjid faoliyat yuritmoqda.

“Ziyokor” mahallasi dastlab 1961-yilda Sa’diy nomi bilan tashkil topgan. 2015-yildan buyon mahallaga “Ziyokor” nomi berildi. Mahalla “Fayziobod”, “Xo‘jamurod baxshi”, “Nomozgoh”, “Bog‘ibahor” mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan chegaradosh. Mahallada rus, tojik, tatar millatlari yashaydilar. Mahalla aholisi 3188 nafar (2021-yil 1-yanvar holatida). Shundan oila soni 630 ta, xo‘jalik soni 441 tani tashkil qiladi.

Shahrisabz shahar Xo‘jamurod baxshi MFYda jami aholi 2019-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 3270 nafarni tashkil etgan. Mahalla 1971-yilda tashkil etilgan bo‘lib, Xo‘jamurod baxshi mahallasi deb yuritilgan. Mahalla shu ko‘chada joylashgan Xo‘jamurod baxshi jome’ masjidi nomi bilan yuritiladi. Xo‘jamurod baxshi ota Ibn Abbos Qusam degan kishi bo‘lib, u zot Payg‘ambarimizning sahobalaridan bo‘lgan. Bu yerga kelib, dinni, musulmonchilikni targ‘ib etgan bilimli, fozil inson bo‘lgan.

Kunchiqar MFY shaharning kunchiqar tomonida joylashganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Azaldan Kunchiqar mahallasi Muchin, Moshava va Murutzor guzarlaridan iborat bo‘lgan. Har bir guzarining o‘z tarixi bo‘lgan. Qadimdan mahallada dehqonchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanish imkoniyatlari juda yuqori bo‘lgan. Mahalla ahli fe‘li keng insonlar bo‘lib, Ikkinchi jahon urushi yillarida evakuatsiya qilingan yigirmadan ortiq qrim-tatar oilasini o‘z bag‘riga olgan. Bundan tashqari, mahalla hududida lo‘lilar qabristoni ham bo‘lib, bu qabriston taxminan 700 yil avval paydo bo‘lgan. 1981-yil may oyida shahar aholisi 50 mingdan ortgandan keyin Shahrisabz shahri alohida ajralib chiqdi va Kunchiqar mahallasi ham shaharga qo‘shib olingan.

Xulosa. Shahrisabz atrof mahallalari o‘rta asr rabot doirasi bilan bog‘liq bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Shu sababli ular orasida Taraxli (urug‘ nomi), Shakarteri (kasb-kor nomi) mahallalari ham bor. Bundan tashqari, bir qator atrof mahallalar Shahrisabzga yondosh yerlarga turli urug‘ jamoalarining to‘p-to‘p bo‘lib kelib o‘rnashganidan dalolatdir. Uymavut, Xazora, Qani, Xo‘ja mahallalarida aholi ijtimoiy guruhining to‘p-to‘p bo‘lib yashab kelganidan dalolatdir.

Shahrisabz tarixiy mahallalarining nomlanishini toponimik tadqiq etish, ijtimoiy tahlil qilish ham ko‘p yangi ma‘lumotlar berishi mumkin. Masalan, Shakarteri mahallasi nomidan “shakar” ma‘nosini izlash, fikrimizcha, to‘g‘ri emas. Bu so‘zda teriga ishlov berishning maxsus usuli — sog‘ari, ya‘ni yupqa, nafis teri tayyorlash ko‘zda tutilgan; Shiramon mahallasi nomida esa qadim zamonlarda islomdan avval bu shaharda buddaviylik e‘tiqodi bilan bog‘liq jamoa bo‘lganligiga ishora saqlangan. Holbuki, “shraman(a)” atamasi sug‘d yozma yodgorliklarida budda dini rohibi va u xizmat qilgan ibodat manzili ma‘nosida ko‘p uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Berdiev Q. Shahrisabz – hunarmandlar shahri // Kesh. – 2011-yil 18-mart. – 4-bet.
2. Qashqadaryo viloyati maʼallalariida “Maʼallala” xayriya jamoat fondi viloyat bʼyilimi boʻshkaruvining tadbirklar rejasiining 2017-yil yanvar–dekabʻr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar tʻgʻrisidaagi maʼlumotlari.
3. Malikova G. Mahalla instituti rivojlanishining tarixiy-huquqiy masalalari: monografiya. – Toshkent, 2017. – B. 159.
4. Kamolova H. XIX asr oxiri – XXI asr boshlarida Shahrisabz shahar tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2023.
5. O‘z MA. Fond M-37, 1-ro‘yxat, 6298-yig‘ma jild, 273-varaq.
6. O‘z R MA. Fond M-170, ro‘yxat 1, yig‘ma jild 63, 25-varaqlar.
7. Qashqadaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 5-bayonnoma, 12-hujjat.
8. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi materiallari: Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining II/I sessiyasi materiallari. – 2012-yil 14-fevral. – B. 28.